


Davlat aktivlarni boshqarish agentligi
tomonidan
2023 yil 1-yanvar holatiga
amalga oshirilgan ishlar to'g'risida

HISOBOTLAR



2
MUNDARIJA

TIR	Hisobot nomi
AGENTLIK TARKIBIY BO‘LINMALARI	
I	Davlat aktivlarining reyestrini yuritish
II	Davlat aktivlarini transformatsiya qilish va xususiylashtirish
III	Mulkdor huquqlari va funksiyalarini ta’minlash
IV	Davlat ishtirokidagi korxonalarni korporativ ko’rsatkichlari tahlili
V	To’lovga qobiliyatsizlik jarayonini yuritish
VI	Zamonaviy IT texnologiyalarini joriy etish
VII	Baholash va rieltorlik faoliyatini muvofiqlashtirish
VIII	Inson resurslari va xodimlar salohiyatini rivojlantirish
IX	Tashkiliy va ijro intizomi nazorati
AGENTLIKNING TIZIM YO‘NALISHLARI	
X	Bo’sh turgan binolarni aniqlash, ulardan samarali foydalanishni tashkil etish
XI	“E-auksion” elektron savdo platformasi
XII	Qimmatli qog‘ozlar bozorini isloh qilish va jadal rivojlantirish

Agentlik faoliyatining asosiy yo'nalishlarida amalga oshirilgan chora-tadbirlar bo'yicha

HISOBOTLAR

I. Davlat aktivlarining reestrini yuritish

Umumiy ma'lumotlar:

davlat ishtirokidagi korxonalar 2022-yil 1-yanvar holatiga **2144 ta** va 2023-yil 1-yanvar holatiga **2 340 tani** tashkil etdi.

a) davlat aktivlarining mulkchilik-huquqiy shakli bo'yicha (jami – **26 235 ta**):

- aksiyadorlik jamiyatlari – **224 ta** (25 foizgacha – 33 ta, 25-50 foizgacha – 42 ta, 51-99 foizgacha – 113 ta, 100 foiz – 36 ta);
- mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – **1 219 ta** (25 foizgacha – 97 ta, 25-50 foizgacha – 122 ta, 51-99 foizgacha – 593 ta, 100 foiz - 407 ta);
- davlat unitar korxonalari – **897 ta**.
- davlat muassasalari – **26 235 ta**.

b) davlat mulklarining davlat muassasalari yo'nalishlari bo'yicha biriktirilishi (jami – **26 235 ta**):

- davlat boshqaruv organlari – **65 ta**;
- ijtimoiy soha tashkilotlari – **20 347 ta**;
- organlar (IIV, DXX va boshqalar) – **532 ta**;
- boshqa davlat organlari – **5 291 ta**.

v) davlat ishtirokidagi korxonalar turlari bo'yicha (jami – **2 340 ta**):

- yirik strategik korxonalar – **23 ta**;
- yirik korxonalar – **445 ta**;
- kichik korxonalar – **1 168 ta**;
- mikrofirmalar – **704 ta**.

Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 8-iyundagi 355-son qarori bilan tasdiqlangan Nizom talablari asosida davlat ko'chmas mulk obyektlarini bir davlat tashkilotidan boshqa bir davlat tashkilotiga operativ boshqaruv huquqi asosida o'tkazish to'g'risidagi **62 ta** Agentlik qarori qabul qilingan.

Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 8-maydagi 273-son qaroriga asosan, Davlat tashkilotlari tomonidan hisob obyektlarining joriy holati to'g'risidagi ma'lumotlar **“property.davaktiv.uz”** axborot tizimiga har chorakda bir marotaba kiritib borilishi ta'minlanmoqda.

Shu bilan birga, **“property.davaktiv.uz”** axborot tizimida shakllantirilgan ma'lumotlar Hukumatning hamda Agentlikning ochiq ma'lumotlar portalida doimiy ravishda joylashtirilib borilmoqda.

II. Davlat aktivlarini transformasiya qilish va xususiylashtirish

Investitsion jozibadorligini oshirgan davlat aktivlarini xususiylashtirish jarayonida:

1. 2021-yil davomida xususiylashtirish jarayonlarini jadallashtirish yuzasidan 2 ta Farmon va 1 ta qaror qabul qilindi.

Amaldagi qarorlarga asosan **5 881 ta** aktivlar boshlang'ich **25,7 trln. so'm** qiymatda ommaviy savdolarga chiqarilib, shundan umumiy qiymati **12,0 trln. so'm** bo'lgan **1 351 ta** aktivlar **xususiy sektorga sotilishi ta'minlandi**.

Xalqaro tajriba asosida xususiylashtirish jarayoniga "Rotshild", "Deloyt", "KeyPiEmDji", "Grant Thornton" kabi nufuzli moliyaviy konsultantlarni jalb etgan holda savdolarni tashkil bo'yicha yo'lga qo'yilgan yangi tartib o'zining ijobiy natijalarini berdi.

Xususiylashtirish borasida to'plangan tajriba asosida bir qator **yirik davlat aktivlari samarali sotilishiga erishildi**.

Jumladan, **"Farg'ona neftni qayta ishlash zavodi" MCHJ** (**1,1 trln. so'm**), **"Hyatt Regency Tashkent" mehmonxonasi** (**970,0 mlrd so'm**), **"Chorvoq oromgohi" dam olish maskani** (**208,0 mlrd so'm**) kabi davlat aktivlari salohiyatli investorlarga sotildi.

2. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-dekabrdagi 759-XDFU-sonli qarori hamda Ishchi guruhning 2022-yil 10-martdagi 4-son bayoni bilan **"Dehqonobod kaliy zavodi" AJ**ning kon zaxiralarini (Tyubegatan kaliyli tuz koni) **JORC** standartlari asosida tahlil qilish va baholash metodikasini ishlab chiqish maqsadida **DMT** group kompaniyasi tanlab olingan.

Natijada, **3 ta** talabgor ("Smart Drill" MChJ, "O'zbek Geologiya Qidiruv" AJ, "Ellips UDP" va "O'zgashkliti" konsorsium kompaniyalari) larning takliflari kelib tushdi va eng maqbul tijorat taklif deb **"O'zbek Geologiya Qidiruv" AJ** topildi.

Xozirda, "O'zbek Geologiya Qidiruv" AJ tomonidan Tyubegatan kaliy tuzlari konidagi mineral resurslar va zaxiralari baholanish ishlari JORC-2012 kodeksi talablariga muvofiq burg'ulash ishlari boshlandi.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 15-noyabrdagi PQ-10-son hamda 2022-yil 18-martdagi PQ-168-son qarorlariga asosan **"O'zdonmahsulot" AK tarkibidagi don korxonalarini bosqichma-bosqich xususiylashtirish belgilangan**.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida joriy yil 11 may kuni "G'allani xarid qilish va sotishda bozor mexanizmlarini keng joriy etish hamda hududlarda favqulodda vaziyatlarning oldini olish bo'yicha amalga oshirilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlar"ga bag'ishlab o'tkazilgan 40-son yig'ilish bayoni (16.05.2022 y. 02-RA 1-7554-son) bilan "O'zdonmahsulot" AK tizimidagi xususiylashtiriladigan har bir don korxonasida Loyiha ofisini tashkil etish, non sexlari va savdo do'konlari hamda **20 ta** don korxonasini xususiylashtirish bo'yicha "Yo'l xaritasi"ni tasdiqlash hamda joriy yilning 1 avgustga qadar ulardagi davlat ulushlarini savdoga chiqarish belgilangan.

Shu bilan birga, Davlat mulkini sotishda tender savdolarini o'tkazish bo'yicha davlat komissiyasining "O'zdonmahsulot" AK tizimidagi don korxonalarini xususiylashtirishni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2022 yil 30 iyundagi 38-son yig'ilish bayoni bilan 2022 yilda **20 ta** va 2023 yilda 23 ta "O'zdonmahsulot" AK tarkibidagi don korxonalarini, non sexlari va savdo do'konlarini xususiylashtirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" tasdiqlangan.

Yuqoridagi topshiriqlar ijrosini ta'minlash va don korxonalarini xususiylashtirishga tayyorlash maqsadida, Davaktiv agentligi tomonidan:

- 2022 - 2023 yillarda xususiylashtirilishi belgilangan **43 ta** don korxonalarining alohida mulkiy majmualari (non va savdo do'konlari, filiallari, don qabul qilish shaxobchalari, xizmat ko'rsatish va ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi alohida mulkiy majmualari) xatlovdan o'tkazildi va ro'yhati shakllantirildi;

- 2022 yilda xususiylashtirilishi belgilangan "O'zdonmahsulot" AK tizimidagi **20 ta** don korxonalarida:

- ijro organi rahbarining transformatsiya masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari lavozimiga Davaktiv agentligining malakali mutaxassislari tayinlandi;

- sotiladigan davlat ulushini tavsiyaviy narxini aniqlash uchun baholash tashkilotlari jalb etildi;

- davlat ulushi (shu jumladan, non va savdo dukonlari hamda don qabul qilish shaxobchalari, xizmat ko'rsatish va ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi alohida mulkiy majmualari) va **10 ta** don korxonalarining filiallarining bino-inshootlari "E-auksion" elektron savdo platformasidagi elektron onlayn-auksion orqali ommaviy savdolari boshlanganligi to'g'risida 2022 yil 30 iyulda e'lon berildi.

Hozirda jami **14 ta**, jumladan:

- 6 ta** don korxonalaridagi davlat ulushlari bo'yicha ommaviy savdolarning birinchi bosqichida talabgorlar tomonidan kelib tushgan takliflar o'rganilmoqda;

- 8 ta** don korxonalaridagi davlat ulushi bo'yicha ommaviy savdolarning ikkinchi bosqichiga o'tkazilgan talabgorlar tomonidan taqdim etilgan tijorat takliflari o'rganilmoqda.

Shu bilan birga, **6 ta** don korxonalaridagi davlat ulushi bo'yicha ommaviy savdolarning birinchi bosqichida talabgorlardan takliflarni qabul qilish davom etmoqda.

Ushbu davlat aktivlari bo'yicha savdo jarayonlarining birinchi va ikkinchi bosqichlarda ishtirok etgan barcha talabgorlarga Ishchi organ tomonidan alohida rasmiy xabarnomalar yuboriladi.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 8 apreldagi PF-101-son Farmoniga asosan xususiylashtirish strategiyalarini ishlab chiqish bo'yicha "Uzbekistan airways" AJ uchun "Deloitte" konsalting kompaniyasi va "Issiqlik elektr stansiyalari" AJ uchun "KPMG" konsalting kompaniyasini jalb etish yuzasidan shartnomalar imzolandi.

6. "O'zagrokimyohimoya" AJ va hududiy "Agrokimyohimoya" AJlarning tugatish komissiyalari tomonidan hududiy "Agrokimyohimoya" AJlardagi **116 655 ta** mol-mulklari va asosiy vositalari xatlovdan o'tkazildi.

Tugatish komissiyalari qarorlariga asosida tugatilayotgan “O‘zagrokimyohimoya” AJ va hududiy “Agrokimyohimoya” AJlarning **1,1 trln. so‘mlik 4 666 ta** mol-mulkleri “E-auksion” elektron savdo platformasida ommaviy savdolarga chiqarilib, shundan umumiy qiymati **89,5 mlrd. so‘mlik jami 904 ta** mol-mulkler sotilishi ta‘minlandi.

Shuningdek, “O‘zkimyosanoat” AJ tarkibiga kiruvchi kimyo korxonalariga qarzdorliklarini qisqartirish hisobiga **12 ta** yirik mineral o‘g‘it saqlash omborlari kimyo korxonalarining taklifiga asosan qarzdorlik evaziga mineral o‘g‘itlar zaxirasi yaratish uchun berilgan. Mazkur kimyo korxonalari tomonidan olingan mineral o‘g‘it saqlash omborlari hisobiga hududiy “Agrokimyohimoya” AJlarga jami **20 256 mln.so‘m** mablag‘lar to‘lab berilishi kerak.

“O‘zagrokimyohimoya” AJ va “Agrokimyohimoya” HAJlarining **1,7 trln. so‘m** miqdoridagi debitor qarzdorliklar va **3,2 trln. so‘m** miqdoridagi kreditor qarzdorliklar mavjudligi aniqlanib, kreditorlar ro‘yxatlari shakllantirildi.

“Agrokimyohimoya” HAJlar balansidagi **133 ta** ma‘muriy binolar, **77 ta** biolaboratoriyalari, **1 ta** omborxona binosi, **473 ta** turli texnika vositalari va **25 783 ta** turli idora jihozlari (maishiy texnikalar, mebel va boshqa jihozlar)ni O‘simliklar karantini va himoyasi agentligi balansiga o‘tkazib berish bo‘yicha hududiy tugatish komissiyalarining tegishli qarorlari qabul qilingan.

21 ta korxonalarining aksiyalarini fond birjasida birlamchi va ikkilamchi ommaviy joylashtirish bo‘yicha Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 15 avgustdagi 446-son qarori qabul qilingan bo‘lib, qarorga muvofiq 2022-2023 yillarda ushbu korxonalarda IPO va SPO o‘tkazish yuzasidan “Yo‘l xarita”lari tasdiqlangan. Hozirda, tasdiqlangan “Yo‘l xarita”lariga binoan ishlar tashkillashtirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 18 martdagi PQ-168-son qaroriga muvofiq xo‘jalik jamiyatlari tomonidan jami **842 ta** aktivlarini topshirish belgilangan. Shundan, **567 ta** qabul qilgan, qolgan **275 ta** aktivlarini qabul qilib olish bo‘yicha shartnoma, depo topshiriqnoma va dalolatnomalarni rasmiylashtirish choralari yakuniy bosqichi amalga oshirilmoqda.

Investitsiya majburiyatlari bajarilishi monitoringi

2022-yil 31-dekabr holatiga nazoratdagi jami **12,9 trln. so‘m** investitsiya kiritish va **35 304 ta** ish o‘rni yaratish majburiyatlari

bilan sotilgan **854 ta** davlat aktivlari bo‘yicha monitoring olib borildi. Shundan:

367 ta obyekt to‘liq ishga tushirilib, **2 420,7 mlrd so‘m** investitsiya kiritildi va **10 210 ta** yangi ish o‘rinlari yaratildi, shundan, kambag‘al toifadagi aholi – **1 042 ta**, ayollar – **3 252 ta**, yoshlar – **2 292 ta**;

150 ta davlat aktivlari bo‘yicha oldi-sotdi shartnomalari xaridorlar tomonidan shartnoma majburiyatlari bajarilganligi sababli belgilangan tartibda bekor qilindi;

jami **10,2 trln. so‘m** investitsiya kiritish va **22 340 ta** ish o‘rni yaratish majburiyatlari bilan sotilgan **337 ta** davlat aktivlari bo‘yicha monitoring olib borilmoqda.

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalarini xususiylashtirish

Qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan **90 001 ta 5,7 ming** gektardan ortiq bo'sh turgan yer uchastkalari "Yerelektron" AATga kiritilib, shundan, **56 626 ta 3,3 ming** gektardan ortiq yer uchastkasi savdoga chiqarilgan va **13 334 ta (994,4 gektar) 989,3 mlrd.so'mga** sotilgan.

Fuqarolar va yuridik shaxslari tomonidan ularga doimiy foydalanish (egallik qilish), ijara yoxud meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqi asosida tegishli bo'lgan yer uchastkalarini xususiylashtirish bo'yicha "Yerxususiylashtirish" AATga **30 464 ta** arizalar kelib tushgan bo'lib, shundan, **2 258 ta** davlat orderi berilib, **27,3 mlrd.so'm** undirilgan.

Yakka tartibdagi uy-joylarni qurishga mo'ljallangan **1 751 ta** yer uchastkalari "Yerelektron" AATga kiritilib, shundan, **612 ta 24,1** gektar yer uchastkasi savdoga chiqarilgan va **228 ta (8,9 gektar) 2,3 mlrd.so'mga** sotilgan.

III. Mulkdor huquqlari va funksiyalarini ta'minlash

1. Agentlik ulushi mavjud xo'jalik jamiyatlari aksiyador (ta'sischi)lari umumiy yig'ilishlari o'tkazilishi tashkillashtirildi hamda yig'ilishlarda ishtirok etish uchun **300 taga** yaqin ishonchnoma va **200 tadan** ortiq ko'rsatmalar berildi. Shuningdek, Agentlik yagona aksiyador(ta'sischi) hisoblangan **10 ta** xo'jalik jamiyatlarining **12 ta** yagona aksiyador(ta'sischi) qarorlari qabul qilindi.

2. Davlat ishtirokidagi **38 ta** yirik korxonalar kuzatuv kengashi tarkibiga **79 ta** xorijiy mustaqil a'zolari jalb etish hamda **100 ta** top-menejerlar zaxirasini shakllantirish maqsadida **Jahon banking IBL loyihasi doirasida** xalqaro tanlov e'lon qilinib, natijalariga ko'ra Xarid komissiyasining 2022-yil 3-avgustdagi yig'ilish qarori bilan **"Strikitsa Consulting" Ltd (Buyuk Britaniya)** kompaniyasi g'olib deb topildi.

2022-yilning 26-29-sentabr kunlari **"Strikitsa Consulting" Ltd** kompaniyasi vakillari hamda Moliya vazirligi, Davaktiv agentligi va yirik korxonalar vakillari bilan uchrashuvlar o'tkazilib, korxonalar kuzatuv kengashi tarkibiga mustaqil a'zolari jalb qilish bo'yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlar belgilab olindi.

Mazkur loyihani amalga oshirish natijasiga ko'ra, davlat ishtirokidagi **38 ta** yirik korxonalar kuzatuv kengashi tarkibiga **79 ta** xalqaro tajribaga ega mustaqil a'zolar jalb etiladi hamda **100 ta** TOP-menejerlar zaxirasi shakllantiriladi.

3. Osiyo taraqqiyot banki ekspertlari bilan birgalikda Korporativ boshqaruv tizimini baholash mezonlari (SkorKard) ishlab chiqildi va **20 ta** xo'jalik jamiyatida qo'llab ko'rildi va natijasiga ko'ra Osiyo taraqqiyot banki ekspertlari tomonidan yig'ma hisobot tayyorlanib, Agentlikka taqdim etildi.

Shuningdek, Davaktiv agentligining 2022-yil 16-sentabrdagi 269-son buyrug'iga asosan mazkur korporativ boshqaruv tizimini baholash mezonlari (SkorKard)ni davlat ulushi 50 foizdan ortiq bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlarida **bosqichma-bosqich joriy etish belgilab olindi.**

4. Agentlik ishtirokidagi **23 ta** (*"Qo'qon biokimyo" AJ, "Koson neftgazqidiruv ekspeditsiyasi" MChJ, "Kogon yog' ekstraktsiya" AJ, "Poytaxtbank" AJ, "O'zbekiston Respublika tovar xom ashyo birjasi" AJ, "Qishloqqurilishloyiha" MChJ, "O'zsuvta'minot" AJning 15 ta hududiy suv ta'minoti korxonalari, "Qashqadaryo neft-gaz qurilish va ta'mirlash" AJ, "Muborakneftgazmontaj" AJ*) xo'jalik jamiyatlarining kuzatuv kengashlari tarkiblariga amaldagi qonunchilik talablari asosida nomzodlar shakllantirildi va xo'jalik jamiyatlariga tegishli qarorlarni qabul qilinishini tashkillashtirish uchun yuborildi.

Shuningdek, davlat ishtirokidagi jami **171 ta** korxonalarning kuzatuv kengashi tarkibiga davlat ulushi bo'yicha kiritiladigan nomzodlar ro'yxati shakllantirilib, Agentlik rahbariyatiga kiritildi.

5. “Korporativ boshqaruv tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 08-apreldagi PF-101-son Farmoni hamda Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-martdagi 166-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Davaktiv agentligi tomonidan 2022-yil 22-aprelda **davlat ishtirokidagi korxonalarga ta'sis va ichki me'yoriy hujjatlarini qonunchilik hujjatlariga muvofiqlashtirish** bo'yicha 01-08-01/08-1-18/298-son xat bilan **ko'rsatma** berildi.

Bundan tashqari, davlat ishtirokidagi korxonalarning korporativ **faoliyatini tartibga soluvchi** “Kuzatuv kengashi to'g'risida”, “Ijroiya organi to'g'risidagi”gi, “Audit qo'mitasi to'g'risida”, “Tayinlash va rag'batlantirish qo'mitasi to'g'risidagi” hamda “Korrupsiyaga qarshi kurashish va etika qo'mitasi to'g'risida” **namunaviy nizomlar** loyihalari ishlab chiqilib, manfaatdor vazirlik va idoralar bilan kelishilib, Agentlikning 2022-yil 26-maydagi 01/08-1-18/422-son xati orqali davlat ishtirokidagi korxonalarga o'z faoliyat yo'nalishlaridan kelib chiqib, **boshqaruv organlari tomonidan tasdiqlash** uchun yuborildi.

Shuningdek, namunaviy nizom loyihalarining **elektron nusxalari** Agentlikning www.davaktiv.uz veb-saytining davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarish bo'limida **joylashtirildi**.

Shunga ko'ra, **142 ta** korxonada kuzatuv kengashining **qoshida tegishli yo'nalishlar** bo'yicha (*strategiya va investitsiyalar qo'mitasi, audit qo'mitasi, tayinlovlar va haq to'lash qo'mitasi, Korrupsiyaga qarshi kurashish va etika qo'mitasi*) **566 ta qo'mitalar** tashkil etilgan.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining:

2019-yil 14-yanvardagi PQ-4112-son hamda Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 26-apreldagi 356-sonli qarorlari talablaridan kelib chiqib, joriy yil **10 ta** Agentlik ishtirokidagi davlat ulushi ustuvor korxonalarning (*“Farg'ona yog'-moy” AJ, “Qo'qon neftgaz parmalash ishlari” AJ, “Olot neft va gaz qidiruv ekspeditsiyasi” MChJ, “Shaxrixon sharob savdo” MChJ, “Sharq” AJ, “O'zagrolizing” AJ, “Biokimyo” AJ, “O'zbekgeofizika” AJ, “Koson neft gaz qidiruv ekspeditsiyasi” MChJ, “Muborakneftgazmontaj” AJ*) **13 ta** rahbarlik lavozimlariga o'rnatilgan tartibda tanlovlar o'tkazildi va kelishish uchun Vazirlar Mahkamasiga kiritildi.

Shundan, *“Qo'qon neftgaz parmalash ishlari” AJ, “Olot neft va gaz qidiruv ekspeditsiyasi” MChJ, “Sharq” AJ, “O'zagrolizing” AJ, “O'zbekgeofizika” AJ, “Koson neft gaz qidiruv ekspeditsiyasi” MChJ, “Muborakneftgazmontaj” AJ* ijro organi rahbarlik lavozimlariga nomzodlar Vazirlar Mahkamasi bilan kelishilib, boshqaruv organi qarorlari bilan lavozimlariga tayinlandi;

2021-yil 6-iyuldagi PQ-5177-son hamda Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-martdagi 166-son qarorlariga asosan yil boshidan **55 ta** o'tgan davrda **13 ta** Davlat ishtirokidagi korxonalarga **komplaens xizmatini** joriy etish hamda tegishli nizomlarni ishlab chiqish tashkillashtirildi;

2022-yil 18-martdagi PQ-168-son qaroriga asosan 1-ilovasida **55 ta**, 2-ilovasida **1 501 ta** va 4-ilovada **32 ta** davlat va davlat ishtirokidagi korxonalarning asosiy faoliyatiga xos bo'lmagan aktivlarini xususiylashtirish hamda davlat boshqaruvi organlariga o'tkazish belgilab berildi. Yil yakuniga

922 ta qabul qilinishi belgilangan aktivlardan **626 tasi**ning tegishli boshqaruv organlari qarorlarini qabul qilinishi ta'minlanib, **Agentlik balansiga qabul qilib olindi**.

Shuningdek, **“O‘zagroservis” AJ faoliyati** va uning tarkibiy korxonalari o‘rganib chiqildi, o‘rganish natijalariga ko‘ra **“O‘zagroservis” AJ**ning tarkibiga kiruvchi **176 ta** tashkilotlar mavjudligi ma’lum bo‘ldi.

Davlat agentligi tomonidan **“O‘zagroservis” AJ** tarkibidagi tashkilotlar ko‘chmas mulk obyektlarini, zarur hollarda, ularni alohida lotlarga bo‘lgan holda, elektron onlayn-auksion savdolariga baholangan qiymatda chiqarish ishlari tashkillashtirilmoqda. Bugungi kunda mavjud qarzdorlikni so‘ndirish maqsadida **66 ta** aktiv (ulush va obyekt) sotilgan, **9 ta** xo‘jalik jamiyatlaridagi ulushlar hamda **14 ta** ko‘chmas mulk obyektlari savdoga chiqarilgan. **72 ta** korxonaning **36 tasi**da ko‘chmas mulk obyektlari bo‘yicha baholash ishlari yakunlanmoqda, **5 tasi**da sud jarayoni davom etmoqda, **20 tasi**da ko‘chmas mulk obyektlarini taqiqdan chiqarish ishlari olib borilmoqda hamda **11 tasi**da kadastr hujjatlari mavjud bo‘lmaganligi sababli ularni tayyorlab, rasmiylashtirish ishlari amalga oshirilmoqda;

11-noyabrdagi PQ-7-son qaroriga asosan “Toshkent traktor zavodi” MChJ faoliyati tashkil etildi, ustav fondi to‘liq shakllantirilib, belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazildi;

7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining:

2019-yil 24-sentabrdagi 800-son qaroriga asosan davlat ishtirokidagi 295 ta korxonalardan **254 tasi** (shundan 18 tasi 2022-yil davomida) tugatilgan va qayta tashkil etilgan, **6 tasi** sotilgan. Qolgan **35 tasi** bo‘yicha tugatish ishlari davom ettirilmoqda;

2020-yil 3-noyabrdagi 684-son qarori doirasida **“UzVC milliy venchur fondi” MChJ** ustav kapitalidagi **100 foiz** davlat ulushini tanlov g‘olibi **Sturgeon Capital Ltd** (Buyuk Britaniya) kompaniyasi ishonchli boshqaruvga berish bo‘yicha Davlat aktivlarini boshqarish agentligi, **“UzVC milliy venchur fondi” MChJ** va **Sturgeon Capital Ltd** (Buyuk Britaniya) kompaniyasi o‘rtasida 2022-yil 14-yanvarda 3339-sonli ishonchli boshqaruv shartnomasi tuzildi.

2021-yil 4-maydagi 266-son qarori ijrosi doirasida **551 ta** aktivlar Davlat agentligi balansiga olindi, **31 ta** obyekt *(Jamiyatlar va MIB tomonidan qaror qabul qilinishidan oldin)* sotilgan, **31 ta** obyekt O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Vazirlar Mahkamasi va Qoraqalpog‘iston Respublikasi Juqori Kengashi Prezidiumining qarorlariga muvofiq KSZga, samarali foydalanish maqsadida jamiyat ixtiyoriga, uy-joy sifatida fuqarolarga va tadbirkorlik subyektlariga, **14 ta** obyekt Davlat arxitektura-qurilish nazorati inspeksiyasi xulosasiga asosan buzib tuman hokimliklari yer fondi zaxirasiga, **42 ta** aktivlar Davlat boshqaruv organlari, mahalliy hokimliklar va xo‘jalik jamiyatlariga, **2 ta** obyekt **“O‘zagrokimyohimoya” AJ**ning Hududiy tugatish komissiyasi qaroriga asosan O‘simliklar karantini va himoyasi agentligiga berildi, **82 ta** aktivlar bo‘yicha topshirish va qabul qilish ishlari olib borilmoqda.

2021-yil 3-iyundagi 350-son qaroriga asosan 454 ta davlat ishtirokidagi korxonalardan **336 tasi** (shundan 115 tasi 2022-yil davomida) davlat reestridan chiqarilgan;

2022-yil 22-fevraldagi PQ-141-son qaroriga muvofiq “Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimi” MChJ tashkil etildi.

2022-yil 18-apreldagi 182-F-sonli Farmoyishiga asosan “Yangi Angren IES” AJning qurilishi tugallanmagan 4 ta obyektlarini 24 oy muddatga konservatsiya qilish belgilandi.

2022-yil 30-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga paxta xom ashyosini qayta ishlaydigan va to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqaradigan korxonalarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash va ularning manfaatdorligini oshirish uchun qulay sharoitlar yaratishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi 477-son qarori qabul qilindi.

2022-yil 20-sentabrdagi 517-son qaroriga muvofiq **“Tamshush suv inshootlaridan foydalanish direksiyasi” DUK tashkil etildi.**

2022-yil 26-oktabrdagi 619-son qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida Davlat unitar korxonasining kuzatuv kengashi to‘g‘risidagi namunaviy nizom loyihasi ishlab chiqildi hamda Davlat aktivlarini boshqarish agentligining rasmiy veb-saytiga joylashtirildi, shuningdek, mazkur namunaviy nizom loyihasidan faoliyatida foydalanish to‘g‘risida davlat unitar korxonalariga xat yuborildi.

2022-yil 4-noyabrdagi qarori 647-son qarori qabul qilindi unga muvofiq Kuzatuv kengashi a‘zolariga nomzodlar zimmasiga quyidagi fidutsiar majburiyatlar olishi belgilangan:

jonkuyarlikni namoyon qilish majburiyati – kuzatuv kengashi a‘zosi sifatida vijdonan va jonkuyarlik asosida harakat qilish;

sodiqlikni namoyon qilish va manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik majburiyati – kuzatuv kengashi a‘zosi sifatida birinchi navbatda korxona manfaatlaridan kelib chiqib harakat qilish;

lozim darajada ko‘zdan kechirishlikni namoyon qilish majburiyati – kuzatuv kengashi a‘zolaridan korxonaga nisbatan qaror qabul qilishda ehtiyotkorlik bilan yondashish.

mustaqil mulohazadan foydalanish majburiyati – kuzatuv kengashi a‘zosidan qarorlarni mustaqil, shaxsiy va boshqa manfaatlarni inobatga olmagan holda qabul qilish.

2022-yil 20 va 27-iyuldagi 03/1-3314-son topshiriqlariga asosan **“O‘zsuvqurilish” AJ ta‘sischiligidagi MChJlarni maqbullashtirish** orqali ularning sonini **56** tadan **34** taga (23 ta MChJlarni boshqalariga birlashtirish, qo‘shib yuborish va ixtiyoriy tugatish orqali) qisqartirish bo‘yicha ko‘rsatma va takliflar tayyorlandi.

8. Seminar va treninglar:

Buyuk Britaniya ekspertlari ishtirokida “Subsidiyalar” mavzusida amaliy seminar (videokonferensaloqa orqali) o‘tkazildi.

Yevropa qayta qurish va taraqqiyot banki ekspertlari bilan birgalikda 2022-yil mart oyida ilg‘or va asosli xorijiy tajribalar asosida davlat aktivlarini boshqarish, xususiylashtirish jarayonlarini amalga oshirish bo‘yicha trening o‘tkazildi.

IV. Davlat ishtirokidagi korxonalarni korporativ ko'rsatkichlari tahlili departamenti

1. O'zbekiston Respublikasining **“Davlat mulkini boshqarish to'g'risida”**gi qonuni loyihasini O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasida 2022-yil 15-martda qabul qilinishi va Oliy Majlis **Senati tomonidan** 2022-yil 13-iyunda **ma'qullanishi ta'minlandi**.

2. Davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarish va isloh qilish strategiyasini amaliyotga tatbiq etish bo'yicha Vazirlar Mahkamasining “O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim **qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish**, shuningdek, ba'zilarini **o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblash to'g'risida**”gi 2022-yil 26-oktabrdagi **619-son qarori** qabul qilindi.

3. Vazirlar Mahkamasining **“Davlat ishtirokidagi korxonalar va ular tizimidagi yuridik shaxslarning soliq qarzlarini to'lash muddatlarini o'zgartirish orqali ularni moliyaviy sog'lomlashtirish va to'lov qobiliyatini mustahkamlash to'g'risida”**gi qarori loyihasi ishlab chiqilib, belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritildi, hozirda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi bilan kelishilmoqda.

4. Vazirlar Mahkamasining “Davlat ishtirokidagi korxonalar va muassasalarni **xususiylashtirish, qayta tashkil etish va tugatish orqali iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirish** chora-tadbirlari to'g'risida”gi **qarori loyihasi** ishlab chiqilib, belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritildi (*hujjat loyihasi 100 dan ortiq vazirlik va idoralar bilan kelishildi, unga ko'ra davlat ishtirokidagi 263 ta korxonani xususiylashtirish, 37 tasini davlat muassasa va 202 tasini filial sifatida qayta tashkil etish, 172 tasini tugatish belgilanmoqda*).

5. Vazirlar Mahkamasining **“Maxsus maqsadli hisobvaraqlardan vaqtincha foydalanishga ruxsat berilgan xo'jalik yurituvchi subyektlar ro'yxatiga qo'shimchalar kiritish to'g'risida”**gi qarori ishlab chiqilib, 2022-yil 7-iyulda 371-son (XDFU) bilan qabul qilindi (*unga ko'ra 30 ta davlat ishtirokidagi korxonalarga maxsus maqsadli hisobvaraqlar ochish nazarda tutildi*).

6. Davlat ishtirokidagi korxonalarning faoliyat natijalari to'g'risidagi Agentlikning yig'ma hisoboti ilk bor shakllantirildi va Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Vazirlar Mahkamasiga kiritildi. Shuningdek, 2022-yil 15-sentabr kuni Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Budjet va iqtisodiy islohotlar qo'mitasida eshtildi.

7. Korxonalar faoliyati shaffofligi va ochiqligini ta'minlash maqsadida Agentlik tomonidan ishchi guruh tuzilib, korxonalarning rasmiy veb-saytlari mavjudligi va qonunchilik hujjatlari bilan ularga qo'yilgan talablarga javob berishi holati monitoring qilish tizimi yo'lga qo'yildi, (*bunda veb-saytda joylashtirilishi lozim bo'lgan ma'lumotlarning mavjudligiga qarab korxonalar guruhlariga bo'lindi - “qoniqarsiz”, “qoniqarli” va “yaxshi”*) monitoring natijalari har chorakda Vazirlar Mahkamasiga kiritib borilmoqda.

8. Xalqaro moliya institutlari va ekspertlarni jalb etgan holda Davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarish va isloh qilish strategiyasini 2023-2025-yillarda amalga oshirish bo'yicha “yo'l xaritasi” ishlab chiqilib, Vazirlar Mahkamasiga kiritildi.

9. Strategiyada ko'zda tutilgan bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadida YeTTB tomonidan **4 ta** horijiy (Nestor Advisors, BGA, Ernst & Young, Kinstellar) va **1 ta** mahalliy ekspert (Avesta investment group) kompaniyasi jalb qilindi.

10. Xalqaro konsultant “Ernst & Young” kompaniyasi tomonidan dastlabki bosqichda **2 ta** davlat ishtirokidagi korxonalarda (“O‘zmetkombinat” AJ va “IES” AJ) **“uch himoya chizig‘i”ga** asoslangan tavakkalchilikni boshqarish tizimini joriy etish bo‘yicha ishlar yo‘lga qo‘yildi. Shuningdek, Strategiya normalarini ushbu korxonalarda to‘liq tatbiq etish bo‘yicha tegishli ishlar yo‘lga qo‘yildi.

11. “Davlat mulki” avtomatlashtirilgan axborot tizimi Majburiy ijro byurosining (*xatlangan va ta‘qiq qo‘yilgan mol-mulk*) axborot tizimi bilan **integratsiya qilingan**.

Hozirda Davlat soliq qo‘mitasi (*dividendlar*), Davlat statistika qo‘mitasi (*korxonalar pasporti*), Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi (*investitsiya loyihalari*) axborot tizimlari bilan elektron ma‘lumot almashinuvni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha ishlar olib borilmoqda.

12. Korxonalarning sifatli biznes-rejalarni ishlab chiqish uchun Agentlik tomonidan **korxonalarning faoliyati xususiyatidan kelib chiqib 3 toifada** (*yirik korxonalar, kichik korxonalar, bozorlar va savdo komplekslar*) **metodik qo‘llanma va namunaviy biznes-reja loyihasi ishlab chiqilib**, korxonalarga yuborildi.

13. 2022-yilda **1 709 ta** davlat ishtirokidagi korxonalarning biznes-reja ko‘rsatkichlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlari elektron bazasi shakllantirildi, shuningdek, hozirda 2023-yil uchun **1 192 ta** korxonalarning biznes-rejasi asosiy ko‘rsatkichlari elektron bazasi shakllantirildi.

14. 2021-yil yakuni bo‘yicha korxonalarning faoliyatini tahlil qilish natijalari bo‘yicha Agentlik tomonidan **eng katta sof foyda olgan (Top-20 ta), eng ko‘p zarar ko‘rgan (Top-10 ta) va eng ko‘p dividend to‘lagan (Top-10 ta)** korxonalar to‘g‘risidagi ma‘lumot e‘lon qilindi.

15. Davlat ishtirokidagi **917 ta** korxonalar tomonidan 2022-yilda **21 268,6 mlrd. so‘m** (2021-yildagi tushumga nisbatan 2,6 barobarga ko‘p) dividend va ajratmalarni davlat budjetiga yo‘naltirish choralari ko‘rildi.

16. 2021-yil yakuni bo‘yicha **1543 ta**, 2022-yil I chorak bo‘yicha **1303 ta**, 1-yarim yillik yakuni bo‘yicha **1321 ta** va 9-oy yakuni bo‘yicha **1387 ta** davlat ishtirokidagi korxonalarning faoliyati **tahlil qilinib**, natijalari ko‘rib chiqish uchun korxonalarning tegishli **boshqaruv organlariga** yuborilgan.

17. 2022-yilda **ketma-ket ikki chorak mobaynida** SMK natijalari qoniqarsiz yoki past darajada baholangan, biznes-rejaning asosiy parametrlari (*sof tushum va sof foyda*) bajarilmagan **1 120 ta** korxonalarning rahbarlariga choralar ko‘rish bo‘yicha boshqaruv organlariga ko‘rsatmalar yuborildi.

18. Davlat ishtirokidagi jami **169 ta**, shundan **zarar ko‘rgan 94 ta** hamda **iqtisodiy tavakkalchilik** holatidagi **75 ta** korxonalarni **moliyaviy sog‘lomlashtirish** yuzasidan 2022-yilga mo‘ljallangan **“yo‘l xaritalari”** - dasturlari ishlab chiqildi va ijrosi nazoratga olindi.

19. Davlat bojxona qo‘mitasi tomonidan taqdim etiladigan **bojxona omborlarida saqlanayotgan**, muddati **uch oydan oshgan** tovarlarning **nomenklaturasi va hajmi** to‘g‘risidagi ma‘lumotlar asosida **80 ta** korxona va tashkilotlarga ko‘rsatmalar yuborildi.

20. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 21.08.2020-yildagi PQ-4812-son qaroriga asosan, **88 ta** korxonalarning kuzatuv kengashlarida **xaridlarni mahalliy ishlab chiqaruvchilardan xarid qilish imkoniyati, import tovarlar (ishlar, xizmatlar) xaridlarining asoslanganligi** ko‘rib chiqilganligi tahlil qilindi va natijasi bo‘yicha Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritildi.

21. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 02.07.2021-yildagi PQ-5171-son qaroriga asosan, davlat ishtirokidagi korxonalarda **xaridlarni shaffofligi va samaradorligini ta‘minlash** bo‘yicha **5 ta** jamiyatda o‘tkazilgan o‘rganishlarda ishtirok etildi (*Hududgazta‘minot” AJ, “Uzavtosanoat” AJ,*

“Uzkimyosanoat” AJ, “O‘zbekneftgaz” AJ, “Uztransgaz” AJ) na tegishliligi bo‘yicha takliflar Vazirlar Mahkamasi tomonidan tuzilgan ishchi guruhga taqdim etildi.

22. Davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarish va isloh qilish Strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan Axborot va ommaviy kommunikatsiyalarni rivojlantirish agentligida brifing tashkil etildi.

V. To'lovga qobiliyatsizlik jarayonini yuritish

1. Bankrot korxonalarni tugatish bo'yicha

2022-yilda jami **11 141 ta** (3 277 tasi 2021-yildan o'tgan, 7 864 tasi joriy yilda bankrot deb topilgan) bankrot korxonalarida (mulki mavjud – **255 ta**, shundan davlat ishtirokidagi korxonalar – **20 ta**) tugatish ishlari olib borilib, ularning **8 335 tasida** (**75 foizi**) tugatish ishlari yakunlangan (mulki mavjud – **128 ta**) qolgan **2 806 tasida** tugatish ishlari davom etmoqda.

Mulki mavjud tugatilayotgan **128 ta** korxonadan:

- **45 tasi** (**277,3 mlrd.so'm** boshlang'ich qiymatda) "E-Auksion" elektron savdo platformasiga chiqarilgan;
- **26 tasida** xatlov, **10 tasida** baholash, **8 tasida** uchinchi shaxslardan mulkini qaytarish bo'yicha sud jarayonlari olib borilmoqda;
- **39 tasining** mol-mulkari sotilib, kreditorga yoki mahalliy hokimliklarga berish ishlarini yakunlash orqali tugatish choralari ko'rilmogda.

Shuningdek, **55 ta** korxonaning **68,7 mlrd.so'm** kreditorlik qarzdorligi qoplanib, faoliyati tiklangan.

Shu bilan birga, iqtisodiy sud qarorlariga asosan **7 ta** ("Toshkent yog'-moy kombinati" AJ, "Portlatish sanoat" MChJ, "Toshkent shahar Dori-darmon" AJ, "Olot neft va gaz qidiruv-ekspeditsiyasi" MChJ, "Neftegazuskunamontaj" UK, "Ceiling produktion" MChJ "Sub-dry" MChJ) korxonalariga nisbatan to'lovga qobiliyatsizlikning sud sanatsiyasi hamda **2 ta** ("Ohangaronshifer" AJ va "Navbahor kelajak sari" korxonasi) korxonalariga nisbatan tashqi boshqaruv taomillari joriy etilgan.

2. Sud boshqaruvchilari faoliyatini nazorat qilish bo'yicha

2022-yil mobaynida **104 nafar** sud boshqaruvchisi talabgori attestatsiyadan o'tkazilib, attestatsiyadan muvaffaqiyatli o'tgan **66 nafar** talabgora sud boshqaruvchisi attestati berildi va sud boshqaruvchilar umumiy soni **286 taga** yetkazildi.

VI. Zamonaviy IT texnologiyalarni joriy etish masalalari

Agentlik tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarga to'g'ridan-to'g'ri muloqotsiz **4 ta** ("Alohida uy (uyning bir qismi) yoki kvartirani xususiyashtirishga bergan shaxslar to'g'risidagi ma'lumotnoma berish" hamda "Davlat mulkini xususiyashtirish bo'yicha ariza (buyurtmanoma) berish", "O'zbekiston Respublikasi fuqarolari va yuridik shaxslariga tegishli bo'lgan qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalarini xususiyashtirish", "Qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalarini xususiyashtirishning birlamchi miqdorini hisoblash") **davlat xizmatlari** Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali **my.gov.uz** orqali ko'rsatish yo'lga qo'yildi.

"Davlat mulki" axborot tizimidagi boshqaruv va nazorat organlari modulining korporativ ko'rsatkichlar bo'limi, davlat ishtirokidagi korxonalar Biznes rejasining asosiy ko'rsatkichlari moduli bilan o'zaro bog'landi hamda Yirik davlat aktivlarini transformatsiya qilish va xususiyashtirish departamentga berilgan **85 ta** davlat ulushi mavjud bo'lgan jamiyatlarini monitoring qilish va hisobini yuritish uchun alohida modul yaratildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-fevraldagi 71-son qaroriga asosan, "Yerxususiyashtirish" avtomatlashtirilgan axborot tizimini texnik topshirig'i ishlab chiqildi hamda Axborot texnologiyalari vazirligi (07.07.2022-yildagi 07-8/4275-son) va "Kiberxavfsizlik markazi" DUKning (14.06.2022-yildagi 01-18-02/1266-son) ekspertiza **xulosalari olindi**.

"Yerxususiyashtirish" AAT ishlab chiqildi hamda amaliyotga joriy etildi.
Bunda:

xususiyashtirilayotgan yer uchastkasini sotib olish qiymatini aniqlashda o'sha kunda belgilangan bazaviy soliqni aniqlashda, Kadastr agentligidan respublikadagi yer uchastkalarini manzili va faqat Toshkent shahridagi joylashgan obyektlarni joylashgan zonasi hamda Soliq kodeksining 429 va 437-moddalaridagi **bazaviy yer soliq stavkalari ma'lumotlari asosida invoys shakllantirish yo'lga qo'yildi;**

Davlat aktivlarini boshqarish, transformatsiya va xususiyashtirish jamg'armasini yuritish boshqarmasi uchun to'lov grafiklarini to'liq kiritish va tasdiqlash, Kelib tushgan mablag'larni tizim tomonidan avtomatik ravishda taqsimlash uchun hamda Qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalarini xususiyashtirish boshqarmasi uchun ham shaxsiy shartnomalarni kiritish, baholovchi va ekspertiza tashkilotlari hamda to'lov grafigi muddatlarini kiritish uchun **"Taqsimot" moduli yaratildi.**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 9-martdagi 107-son qaroriga asosan, 2021-yil 1-maydan boshlab davlat ishtirokidagi korxonalar **tashqi qarzlarni jalb qilish, ulardan foydalanish va ularning miqdorini maqbullashtirish ustidan nazorat qilish moduli** ishlab chiqildi va amaliyotga joriy qilindi hamda Moliya vazirligiga monitoring qilish alohida kabinet yaratildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-fevraldagi PQ-123-son qarorining 7-bandini ijrosini ta'minlash maqsadida, joriy yilning 1-apreldan boshlab Davlat korxona va muassasalariga birlashtirilgan barcha davlat mulki obyektlarini hisobini yuritish **property.davaktiv.uz** axborot tizimiga davlat muassasalarining moliyaviy ko'rsatkichlarini joylashtirib borish imkoniyati joriy qilindi.

cns.davaktiv.uz portali orqali davlat ishtirokidagi korxonalar nomidan kuzatuv kengashi a'zolari uchun vakansiya e'lon qilish hamda ushbu vakansiyalarga ariza yuborish va ushbu kelib tushgan arizalarni "Davlat mulki" axborot tizimida avtomatik

ravishda tahlil qilish va uni moderatsiyadan o'tkazish jarayonlari to'liq muvofaqiyatli testdan o'tkazildi hamda Davlat ishtirokidagi korxonalar boshqaruv va nazorat organlarini shakllantirish boshqarmasining shu yo'nalishdagi ish faoliyati raqamlashtirildi. Shuningdek, ushbu portal Vazirlar Mahkamasining 647-son qarori bo'yicha baholash mezonlari, foydalanuvchi kabineti takomillashtirildi. Shu bilan birga Elektron hukumat idoralaro ma'lumot almashish tizimi orqali oliy ta'lim ma'lumotlarini elektron ma'lumot almashish yo'li orqali tortib olish imkoniyati yaratildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-apreldagi 195-son qaroriga asosan, hokim yordamchilari tomonidan bo'sh turgan obyektlarni aniqlab, "E-AUKSION" elektron savdo platformasi savdolariga chiqarish uchun onlayn buyurtmanoma berish bo'yicha hokimyordamchi.davaktiv.uz tizimi ishlab chiqildi va amaliyotga joriy qilindi.

Davlat muassasalarini tahlil qilish boshqarmasi bilan birgalikda Agentlikning "Davlat mulki" axborot tizimida [davlat muassasalari faoliyati tahlili moduli](#) hamda Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasi tomonidan davlat muassasalariga tegishli xulosa berishlari uchun [alohida kabinetlar yaratildi](#).

Bunda, mazkur modulga Davlat soliq qo'mitasidan davlat muassasalarning muassislari, "Davlat mulki" axborot tizimining davlat ulushi bo'lgan tashkilotlar reestri modulidan muassasalar to'g'risidagi ma'lumotlar hamda Kadastr agentligidan [davlat muassasalarning balansidagi bino-inshootlari bo'yicha kadastr ma'lumotlarni olish imkoniyati yaratildi](#).

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 15-iyundagi 373-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida, har chorakda mas'ul tarkibiy bo'linmalardan tegishli ma'lumotlar umumlashtirilib, [NIS.UZ](#) tizimidagi ma'lumotlar yangilandi. Shuningdek, ushbu reytingda Davaktiv agentligini o'rnini yanada yaxshilash maqsadida Davaktiv agentligi tizimida raqamli rivojlanish darajasini reyting baholash (NIS.UZ) tizimida mavjud kamchiliklarni bartaraf etish va reyting natijasini yanada yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqildi.

Elektron ma'lumot almashish yo'nalishi:

Qurilish vazirligi va Davlat aktivlarini boshqarish agentligi axborot tizimlari o'rtasida elektron ma'lumot almashishni yo'lga qo'yish yuzasidan texnologik yo'riqnoma ishlab chiqilib tasdiqlandi.

Shunga ko'ra, Agentlik tomonidan tender ishtirokchilariga nisbatan joriy etilgan bankrotlik tartib-taomillarining mavjud yoki mavjud emasligi to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etuvchi xizmat (API) ishlab chiqildi va davlat xaridlari elektron tizimining elektron tender savdolari platformasiga integratsiya qilinishi uchun Qurilish vazirligiga taqdim etildi.

"[order.davaktiv.uz](#)" axborot tizimini yanada takomillashtirish va ma'lumotlarning axborot xavfsizligini ta'minlash maqsadida, ushbu axborot tizimiga elektron raqamli imzo bilan kirish imkoniyati joriy qilindi.

Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligining "Elektron hukumat" idoralararo tarmog'i orqali keladigan Oliy ta'lim muassasalarini tamomlaganlik to'g'risidagi diplom ma'lumotlari, pasport ma'lumotlari hamda foto suratlari Agentlikning [cns.davaktiv.uz](#) portaliga ulandi.

"Elektron onlayn-auksionlarni tashkil etish markazi" DUK axborot tizimidan "Ijara huquqi asosida sotiladigan yerlar" va "Mulk huquqi asosida sotiladigan yerlar"

to'g'risidagi ma'lumotlar elektron ma'lumot almashish yo'li orqali Agentlikning (davaktiv.uz) rasmiy veb-saytiga olish imkoniyati yaratildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PQ-105-son qarorining ijrosi bo'yicha, 2022-yil 30-martda Davlat aktivlarini boshqarish agentligi, Ichki ishlar vazirligi va Bosh prokuratura axborot tizimlari o'rtasida elektron ma'lumot almashishni yo'lga qo'yish yuzasidan **texnologik yo'riqnoma** ishlab chiqilib tasdiqlandi. Agentlik axborot tizimi va Bosh prokuraturaning "Elektron surishtiruv va dastlabki tergov" yagona axborot tizimi o'rtasida **integratsiya ishlari amalga oshirildi**.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-fevraldagi 71-son qaroriga asosan, Davlat aktivlarini boshqarish agentligining "Yerxususiyashtirish" AAT va Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligining elektron hukumat idoralararo tarmog'iga hamda Davlat soliq qo'mitasi, Kadastr agentligi axborot tizimlari o'rtasida elektron ma'lumot almashish yo'lga qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22-avgustdagi PQ-357-son qarori bo'yicha Davaktiv agentligining ma'lumotlarni yig'ish, saqlash, ularga ishlov berish va taqdim etish uchun mo'ljallangan **"Davlat mulki"** axborot tizimi hamda Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligining "Elektron hukumat" tizimining idoralararo integratsiyalashuv platformasiga integratsiya qilingan va ushbu aloqa kanallari orqali vazirlik va idoralarning **30 turdagi** ma'lumotlarini elektron almashish yo'lga qo'yildi.

Manopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasi va Davlat aktivlarini boshqarish agentligi axborot tizimlari o'rtasida elektron ma'lumot almashishni yo'lga qo'yish yuzasidan bitim va texnologik yo'riqnoma ishlab chiqilib tasdiqlandi. Agentlik tomonidan Davlat korxonalari va ustav kapitalida davlat ulushi mavjud bo'lgan korxonalar to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etuvchi xizmat (API) ishlab chiqilib, Manopoliya qo'mitasiga taqdim etilib, tashkilotlar o'rtasida elektron ma'lumot almashish yo'lga qo'yildi.

Davaktiv agentligining ma'lumot bazasidagi "Davlat korxonalari va ustav kapitalida davlat ulushi mavjud bo'lgan korxonalar to'g'risidagi ma'lumot"larni Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligining "Elektron hukumat" tizimining idoralararo integratsiyalashuv platformasiga elektron ma'lumot almashish yo'li orqali taqdim etish bo'yicha texnologik yo'riqnoma imzolandi hamda integratsiya yo'lga qo'yildi.

Axborot xavfsizligi yo'nalishi:

Agentlik va hududiy boshqarmalaridagi server qurilmalarini monitoring qilish tizimi joriy qilindi hamda ularda yuzaga keladigan texnik xatoliklar to'g'risidagi ma'lumotlarni tezkor bilish uchun [@zabbexdavaktiv_bot](https://t.me/zabbexdavaktiv_bot) yaratildi.

Agentlik markaziy apparati lokal tarmog'ida barcha foydalanuvchilarning kompyuter qurilmalarining MAC manzillari ro'yxati shakllantirildi va "Kerio control" tizimining ma'lumotlar bazasiga kiritildi. Endilikda, ushbu tarmoqqa begona kompyuter qurilmalarini ulanish imkoniyati to'liq cheklanishiga erishildi.

Agentlik direktorining **buyrug'i bilan** Agentlikning **konfidensial ma'lumotlari** umumiy ro'yxatini aniqlash bo'yicha komissiya tarkibi, Agentlik tizimida konfidensial ma'lumotlar bilan ishlashga ruxsati bo'lgan shaxslar ro'yxati va Agentlikning konfidensial ma'lumotlar bilan ishlash va konfidensial axborotni tashuvchi vositalari bilan ishlash tartibi tasdiqlandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 15-iyundagi PQ–4751-son qarori asosida Agentlikda ishlab chiqilgan axborot tizimlarini **3 tasi** texnik topshiriq talablariga muvofiqligi hamda **3 tasi** kiberxavfsizlik talablariga muvofiqligi yuzasidan ekspertizadan o'tkazildi va **ekspertiza xulosalari olindi**.

Agentlikning veb-serverlaridagi mavjud ma'lumotlarni avtomatik ravishda Agentlikning boshqa serveriga hamda O'zbektelekom AK tomonidan taqdim etilgan co-location xizmati orqali joylashtirilgan Agentlik server qurilmasiga avtomatik ravishda **zaxiralash tizimi joriy qilindi**.

Agentlikning rasmiy veb-sayti (**davaktiv.uz**) "Kiberxavfsizlik markazi" DUK tomonidan joriy etilgan veb resurslarni himoya qilish **"WAF" tizimiga ulandi**.

Shuningdek, Agentlikning rasmiy veb-sayti (**davaktiv.uz**) axborot va kiberxavfsizlik bo'yicha ekspertizadan o'tkazildi va tegishli xulosalar olindi.

Telegram ijtimoiy tarmog'ida Agentlik nomidan soxta akkaunt (@davlat_uzbekistan) orqali, joriy yilning 18-oktabr kuni havola bir-martalik moddiy nafaqa pullari to'lanishi haqida yolg'on axborotlar tarqatildi. Shunga ko'ra, belgilangan tartibda mas'ul tashkilotlarga murojaat qilindi va mazkur akkaunt orqali yuborilayotgan (**fishing**) havolalar **bloklandi**.

Malaka oshirish yo'nalishi:

Joriy yilning 7-may kuni Agentlik markaziy apparati tarkibiy bo'linmalari, hududiy boshqarmalar va idoraviy mansub tuzilmalar xodimlari uchun O'zbekiston Respublikasining "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi Qonunining mazmun-mohiyatini tushuntirish bo'yicha hamda 15-sentabr kuni "Axborot va kiberxavfsizlikni ta'minlash, Agentlik tizimida axborot xavfsizligi holati va Agentlik xodimlari uchun qo'yiladigan talablar" mavzusida videokonferensaloqa shaklida **o'quv seminar tashkil etildi**.

Agentlik tizimidagi axborot xavfsizligi yo'nalishidagi mas'ul xodimlarining **16 nafari** "Axborot xavfsizligi" sohasida 48 soatlik o'quv kursida malaka oshirib tegishli **sertifikatlarga** ega bo'ldi.

Shuningdek, Agentlikning Zamonaviy IT texnologiyalarini joriy etish departamentining **7 nafar** xodimi AKT sohasida ta'lim olib malakasini oshirib Xalqaro IT-sertifikatlarga ega bo'ldi.

VII. Baholash va rieltorlik faoliyati bilan bog'liq masalalar

Riyeltorlik tashkilotlarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish (keyingi o'rinlarda – JFODL/TM/OQQTMQK) bo'yicha ichki nazorat Qoidalariga rioya etish yuzasidan quyidagi ishlar amalga oshirildi:

rieltorlik faoliyati sohasidagi professional jamoat birlashmalari va riyeltorlik tashkilotlari uchun JFODL/TM/OQQTMQK sohasida olib borilayotgan ishlar yuzasidan (15-16-fevral) seminarlar o'tkazildi;

JFODL/TM/OQQTMQK sohasida riyeltorlik tashkilotlari uchun nazorat choralarini amalga oshirishda "Tavakkalchilikka asoslangan yondashuvni qo'llash tartibi to'g'risida"gi Nizom loyihasi ishlab chiqildi va belgilangan tartibda kelishish uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakiliga Bosh prokuratura huzuridagi departamentga, Savdo sanoat palatasiga, Riyeltorlik sohasidagi jamoat birlashmalariga yuborildi;

Agentlik va Davlat soliq qo'mitasi o'rtasidagi elektron hamkorlik orqali **278 ta** rieltorlik tashkilotlarini faoliyat yuritishi bo'yicha xatlov o'tkazildi. Xatlov natijalariga ko'ra riyeltorlik tashkilotlari reestriga o'zgartirishlar kiritildi;

Joriy yilning 30-may – 2-iyun kunlari Toshkent shahrida bo'lib o'tgan Yevrosiyo guruhining 36-Yalpi majlisi davomida vazirlik va idoralar (xususan Davaktiv agentligi – riyeltorlik sohasida) mutaxassislari tomonidan baholash hisobotini muvaffaqiyatli himoya qilish borasida tezkor chora-tadbirlar amalga oshirilgani sababli O'zbekistonning mazkur sohaga oid xalqaro reytingi (Rossiya bilan bir qatorda) Yevroosiyo guruhiga a'zo boshqa davlatlarning (Xitoy, Belorussiya, Tojikiston va Qirg'iziston) reytingiga nisbatan ko'rsatkichi yuqori baholanishiga erishildi.

II. Baholash faoliyati bo'yicha:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga baholovchilarga toifalar berish bo'yicha davlat xizmatlarini ko'rsatish tizimini takomillashtirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" 2022-yil 4-oktyabrdagi 564-son qarori qabul qilindi.

Qarorga muvofiq toifa guvohnomalarini olish uchun talabgorlar tomonidan taqdim etiladigan arizalar (hujjatlar to'plami) joylardagi davlat xizmatlari markazlari yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali taqdim etish amaliyoti joriy qilindi.

vakolatli organ tomonidan talabgorlarga oid ma'lumotlarni elektron ravishda tegishli vazirlik va idoralar bilan integratsiya qilingan holda so'rab olish tartibini joriy etildi.

baholovchilarga toifa berishda byurokratik to'siqlarni bartaraf etish va qog'oz ishini qisqartirish hamda toifa guvohnomalarini QR-kod orqali rasmiylashtirish va davlat xizmatlari markazlari tomonidan berilishini yo'lga qo'yildi shuningdek, baholovchilarga toifa berish bilan bog'liq barcha ma'lumotlar Davaktiv agentligining "Baholash faoliyatining yagona axborot platformasi"da ham yuritiladi.

2. Jahon bankining “Institutsional salohiyatni oshirish” loyihasi doirasida “PricewaterhouseCoopers” professional konsalting kompaniyasi tomonidan Yagona baholash milliy standartiga (YAMBS) (Adliya vazirligi tomonidan 2020-yil 4-iyunda 3239-son bilan ro'yxatga olingan) qo'shimcha o'zgartirishlar kiritish bo'yicha malakali konsultantlar jalb etildi.

O'z navbatida, Yagona baholash milliy standartini tanqidiy qayta ko'rib chiqish bo'yicha Agentlik tomonidan ishchi guruh tuzilgan. Ushbu ishchi guruhga Agentlikning mas'ul xodimlari, X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertizasi markazi ekspertlari, Toshkent Moliya instituti, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti o'qituvchilari hamda baholovchi tashkilotlarning professional jamoat birlashmalari a'zolari va malakali baholovchilar jalb etilgan.

3. Adliya vazirligi, Davaktiv agentligi, baholash sohasidagi jamoat birlashmalari mas'ul xodimlari, malakali baholovchilar va sud ekspertlari bilan birgalikda joriy yilning 13 va 19-may hamda 23-iyun kunlari “Baholash faoliyatida amalga oshirilayotgan ijobiy ishlar, mavjud muammolar va ularning yechimi xususida” seminar va davra suhbatlari o'tkazildi.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi PQ-307-son “2022-2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining inovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida”gi Qarorining 7-ilovasi (269-band) Davaktiv agentligining mablag'lari (200,0 mln.so'm) hisobidan **“Priceme.uz”** mulkni baholashning yagona portali elektron dasturini Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi va Toshkent moliya instituti tomonidan joriy etishi yuzasidan mas'ul deb belgilangan.

5. Davlat dasturi ijrosi yuzasidan www.davbaho.uz domenida Baholash faoliyatining yagona axborot platformasi yaratildi. Ushbu platformada joriy yildan baholovchi tashkilotlar tomonidan baholash faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar shakli elektron taqdim etilishi yo'lga qo'yildi;

6. Toifa guvohnomalarini olish uchun talabgorlar tomonidan taqdim etiladigan arizalar (hujjatlar to'plami) joylardagi Davlat xizmatlari markazlari yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali taqdim etilishini joriy qilindi.

VI. Baholash va riyeltorlik faoliyatida sertifikatlash:

Vazirlar Mahkamasining “Baholovchilar va riyeltorlarning malaka imtihonini o'tkazish va ularga malaka sertifikatini berish bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatishning ma'muriy reglamentlarini tasdiqlash to'g'risida” 2020-yil 23-dekabrda 805-son qarori ijrosini ta'minlash buyicha quyidagilar:

baholovchi va riyeltorning malaka sertifikatini olish uchun talabgorlardan (my.gov.uz) Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali arizalar qabul qilinishi yo'lga qo'yildi;

2022-yil 31-dekabr holatiga yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali baholovchi malaka sertifikatini olish uchun **470 ta** talabgorlardan hamda riyeltorning malaka sertifikatini olish uchun **251 ta** talabgorlardan (jami: **721 ta**) elektron ravishda arizalar kelib tushdi;

o'tkazilgan imtihon natijalariga asosan **225 ta** talabgorga baholovchining va **138 ta** talabgorga riyeltorning QR-kod (matrik shtrixli kod) malaka sertifikatlari berildi.

Ma'lumot uchun: Bugungi kunga qadar jami **1355 ta** baholovchilarga va **2064 ta** riyeltorlarga malaka sertifikatlari berilgan. Shundan, **774 ta** baholovchida va **562 ta** riyeltorda malaka sertifikatlari amal qiladi.

VIII. Inson resurslari va xodimlar salohiyatini rivojlantirish

Agentlik tizimidagi vakant lavozimlarga xodimlarni tanlov asosida qabul qilish boshlanib, hisobot davrida ishga qabul qilish bo'yicha Agentlik tizimi bo'yicha jami **5 590 ta murojaat** kelib tushdi, ulardan **2 386 tasiga** testda ishtirok etish belgilangan shartlarga mosligiga ko'ra ruxsat berildi, testda ishtirok etganlar soni **1 292 ta** nafarni tashkil etdi.

Shuningdek, testdan muvaffaqiyatli o'tib suhbatda ishtirok etgan nomzodlar soni **542** nafar va **suhbat natijalariga ko'ra 121 nafar (19 nafar markaziy apparat)** nomzod bilan mehnat shartnomasi tuzildi.

“Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni va Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-oktabrdagi “Davlat fuqarolik xizmatchilari tomonidan odob-axloq qoidalariga rioya etilishini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi 595-sonli qaroriga muvofiq Agentlik markaziy apparati, uning hududiy boshqarmalari va idoraviy mansub tuzilmalari xodimlarining odob-axloq qoidalarini tasdiqlandi va barcha xodimlar tanishtirildi.

Xodimlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish:

Xar shanba kuni futbol musobaqalari tashkil etilgan. Unda Agentlikning markaziy apparati, xududiy boshqarmalari va idoraviy mansub tashkilotlar qatnashmoqdalar.

Agentlik binosida xodimlarni sport bilan shug'ullanishlari uchun trenajyorlar xonasi va tennis stollari tashkil etilgan bo'lib, **alohida grafik asosida erkaklar va ayollar shug'ullanib kelmoqdalar.**

Har dam olish kunlari turli xildagi sport yo'nalishlari bo'yicha **25-35 nafar** xodimlar **ishtiroki tashkil etildi.**

Agentlik markaziy apparatining **4 nafar** xodimi shaxmat bo'yicha o'tkaziladigan idoralararo **musobaqada ishtirok etdi.**

Malaka oshirish yo'nalishi:

2021-yilning ish rejasiga muvofiq xodimlarni malakasini turli kurslarda oshirish bo'yicha ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan:

Davlat aktivlarini boshqarish agentligi hamda Fransiya taraqqiyot agentligi hamkorligidagi “Iqtisodiy boshqaruvni takomillashtirish dasturi» doirasida “Expertise Franse” agentligi tomonidan Fransiya Respublikasida joriy yilning 4-8-iyul kunlari tashkil etilgan “Davlat korxonalarida korporativ boshqaruv masalalari” mavzusidagi malaka oshirish tadbirida Agentlikning 9 nafar xodimlari ishtirok etib malaka oshirdilar.

Davlat boshqaruvi akademiyasi tomonidan davlat organlari va tashkilotlarining xodimlar bilan ishlash xizmati rahbarlari uchun fevral-mart oylarida maxsus malaka oshirish kurslari tashkil etildi va unda 29 nafar Agentlik va Bo'sh turgan obyektlardan samarali foydalanishni tashkil etish markazi hududiy boshqarmalarining kadrlar xizmatlari bosh inspektorlari ishtirok etib malaka oshirdilar.

“Cert Academy” xalqaro treyning kompaniyasi mutaxassislari tomonidan “Korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi menejeri/ichki auditori” mavzusida

joriy yilning 7-11-mart kunlari markaziy apparat xodimlari uchun o'quv kursi tashkil etildi va 19 nafar markaziy apparat xodimlari o'quv kursini muvaffaqiyatli tamomlab xalqaro skrtifikatga ega bo'ldilar.

Ingliz tili kurslarida 20 nafar markaziy apparat xodimlari ishtirok etdilar.

Rahbar kadrlar va mas'ul lavozimlarga tayinlanadigan shaxslarning davlat tilini bilish darajasini aniqlash va ularni davlat tilini bilish bo'yicha daraja sertifikatini olish maqsadida, Agentlik tizimi bo'yicha grafik asosida jami 88 nafar xodim Davlat test markazi orqali malaka oshirdilar.

Agentlik tizimi bo'yicha 2022-yil davomida jami 629 nafar xodim turli yo'nalishlar bo'yicha malaka oshirgan, shu jumladan, markaziy apparat va hududiy boshqarmalarda 451 nafar xodim va idoraviy mansub tashkilotlarda 178 nafar xodim.

IX. Tashkiliy va ijro intizomi nazorati

Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash:

2022-yilning-yanvar-dekabr oylari mobaynida Davlat aktivlarini boshqarish agentligiga jismoniy va yuridik shaxslardan jami **2604 ta** jismoniy va yuridik shaxslardan murojaatlar kelib tushgan bo'lib, shundan, **833 tasi** bo'yicha tegishli choralar ko'rilgan (qanoatlantirilgan), **1684 tasi** tushuntirish berilgan, rad etilgan (ko'rmasdan qoldirildi) **22 ta**, **65 tasi** ko'rib chiqilmoqda.

Ushbu kelib tushgan, murojaatlardan **583 tasi** bevosita Agentlik markaziy apparati xissasiga to'g'ri kelib, shundan **117 tasiga** tegishli choralar ko'rilgan (qanoatlantirilgan), **384 tasiga** tushuntirish berilgan, **10 tasi** ko'rmasdan qoldirilgan **72 tasi** esa tegishliligi bo'yicha boshqa tashkilotga yuborilgan.

Agentlikka 2022-yil yakuniga ko'ra kelib tushgan murojaatlar sohalar kesimida tahlil qilinganda, xususiylashtirish masalasida - **622 ta**, ijara munosabatlari - **459 ta**, investitsiya majburiyatlarning bajarilishi yuzasidan - **49 ta**, korxona rahbarlarining noqonuniy xatti-harakatlari to'g'risida – **212 ta**, davlat aktivlarini boshqarish masalasi – **24 ta**, bankrotlik masalasi - **116 ta**, baholash va rieltorlik masalalari – **33 ta**, Korxonalarni moliyaviy sog'lomlashtirish masalasi **1 ta**, boshqa masalalar **1088 tani** tashkil etdi.

X. Bo'sh turgan binolarni aniqlash, ulardan samarali foydalanishni tashkil etish

1) Bo'sh turgan davlat mulki obyektlarini aniqlash va ulardan samarali foydalanishni tashkil etish

2 071 ta bo'sh turgan davlat mulki obyektlardan:

665 tasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 18-martdagi "Iqtisodiyotda davlat ishtirokini yanada qisqartirish va xususiylashtirishni jadallashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-168-sonli qarorining 2-ilovasiga asosan ommaviy savdolar orqali sotish belgilangan.

1 406 ta o'tkazilgan xatlovlarda qo'shimcha aniqlangan obyektlarni tashkil etadi.

Ma'lumot uchun. Ushbu obyektlar bo'ysinuvi bo'yicha Xalq ta'limi – **293 ta**, Sog'liqni saqlash – **266 ta**, Madaniyat – **104 ta**, Maktabgacha ta'lim – **95 ta**, Oliy va o'rta maxsus ta'lim – **63 ta**, Sportni rivojlantirish – **12 ta** hokimliklar – **308 ta** va boshqa vazirlik va idoralar – **264 tani** tashkil etadi.

Hududlar kesimida, Buxoroda – **153 ta**, Samarqandda – **204 ta**, Qoraqalpog'iston Respublikasida – **177 ta**, Toshkentda – **144 ta**, Andijonda – **93 ta**, Jizzaxda – **104 ta**, Qashqadaryoda – **117 ta**, Navoiyda – **37 ta**, Xorazmda – **70 ta**, Farg'onada – **67 ta**, Toshkent shahrida – **60 ta**, Surxondaryoda – **92**, Namanganda – **71 ta** va Sirdaryoda – **17 tani** tashkil etadi.

Ushbu aniqlangan obyektlardan **1 100 tasi** bo'yicha samarali foydalanish choralari ko'rilgan, jumladan:

1 015 tasidan 404 tasi o'z yo'nalishida faoliyati tiklangan, 324 tasi ijaraga berish uchun auksion savdolariga chiqarilgan, shundan 83 tasi ijaraga berilgan, 55 tasi ommaviy savdolarida sotish bo'yicha xususiylashtirish dasturi loyihasiga qarorga kiritilgan, 29 tasi buzilgan, 3 tasi uy-joyga berilgan, 154 tasi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlariga kiritilgan va 46 tasi davlat-xususiy sheriklik asosida tadbirkorlarga berish yuzasidan tanlovga qo'yilgan;

Qolgan **391 ta** obyektlardan:

111 tasini sotish, **82 tasini** buzish va **92 tasini** balansda saqlovchida qoldirish takliflari ishlab chiqildi, **85 tasi** bo'yicha balansda saqlovchilar bilan ishlanmoqda;

21 tasi mahallalarda hotin-qizlar markazlarini tashkil etish bo'yicha qarorga kirgan (PQ-331, PQ-376 yoki VM-450-son qarorlarga kirgan) kiritilgan;

2) Davlat ulushi mavjud jamiyatlarga tegishli bo'sh turgan va nosohaviy obyektlardan samarali foydalanish choralarini ko'rish

Respublika hududlarida davlat ishtirokidagi korxonalarga tegishli bo'sh turgan hamda asosiy faoliyatga xos bo'lmagan **1 582 ta** obyektlardan:

836 tasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 18-martdagi PQ-168-sonli qarorining 2-ilovasiga asosan ommaviy savdolar orqali sotish belgilangan;

746 tasi o'tkazilgan xatlovlarda aniqlangan obyektlardan:

503 tasi bo'yicha samarali foydalanish choralari ko'rilgan, jumladan:

451 tasidan 79 tasi o'z yo'nalishida faoliyati tiklangan, **339 tasi** (*shundan, 41 tasi sotilgan, 206 tasi sotish uchun ommaviy savdolarga chiqarilgan*) ommaviy savdolarida sotish bo'yicha qarorga kiritilgan, **25 tasi** ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlariga kiritilgan, **3 tasi** ijaraga berish uchun auksionga chiqarilgan va **5 tasi** buzilgan;

52 tasidan 31 tasi xususiylashtirish bo'yicha yangi qaror loyihasiga kiritilgan **9 tasi** egasiz, **6 tasi** davlat tasarrufiga o'tganzilgan va **6 tasi** turar-joy tasarrufiga o'tganzilgan obyektlar.

Qolgan **243 ta** obyektlardan samarali foydalanish choralarini ko'rish ishlari davom ettirilmoqda shundan, **56 tasi** taqiqda turgan.

3) Mulklarni ijaraga berish

Respublika bo'yicha davlat va davlat ishtirokidagi xo'jalik jamiyatlarga tegishli mulklarni ijaraga berishdan bugungi kunga qadar umumiy qiymati **697,3 mlrd. so'mlik 56 543 ta** ijara shartnomalari tuzilgan. Shundan:

davlat mulki bo'yicha **286,8 mlrd. so'mlik 27 466 ta** ijara shartnomalari rasmiylashtirilgan;

davlat ishtirokidagi xo'jalik jamiyatlariga tegishli mulklar bo'yicha **410,5 mlrd. so'mlik 29 077 ta** ijara shartnomalari rasmiylashtirilgan.

Joriy yil yakunida jami **514,5 mlrd.so'm, shundan 297,6 mlrd.so'm davlat mulkidan** (*yillik rejaga nisbatan 102,8 foizga*) ijara tushumlari tushirilishi ta'minlangan.

XI. “E-auksion” elektron savdo platformasi

“E-auksion” elektron savdo platformasi orqali **2022-yil davomida:**

- **auksion savdolariga** jami **19 067,6 mlrd.so‘m** boshlang‘ich narx bilan **130 349 ta** mol-mulklar va foydalanish huquqlari chiqarilgan va **44 199 tasi 5 623,2 mlrd. so‘mga** (**1 719,8 mlrd.so‘m** qimmatroq) realizatsiya qilingan;
- **tanlov savdolariga** qishloq va dehqon xo‘jaligiga mo‘ljallangan **286 760 gektar** yer-maydoniga ega **453 320 ta** yer uchastkalari chiqarilgan va **261 964 gektar** yer uchastkalari bo‘yicha **432 129 ta** tanlov g‘oliblari aniqlangan. Jumladan:

Bugungi kunga qadar o‘tgan auksion va tanlov savdolarida ishtirok etish uchun jami **1 129 548 ta** arizalar kelib tushgan.

1. Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun yer uchastkalariga bo‘lgan ijara (ko‘p qavatli uy-joy qurish bilan birga) va mulk huquqi realizatsiyasi bo‘yicha 2022-yilda 3 327,7 gektar yer-maydoniga ega **56 626 ta** yer uchastkalari **1 660,2 mlrd.so‘m** boshlang‘ich narx bilan auksion savdolariga chiqarilgan va **12 334 ta 997,4 gektar** yer uchastkalari **989,3 mlrd. so‘mga** (**352,3 mlrd.so‘mga** qimmatroq) realizatsiya qilingan. Jumladan:

- **Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun yer uchastkalariga bo‘lgan ijara huquqi realizatsiyasi bo‘yicha 2022-yilda 2 564,5 gektar** yer-maydoniga ega **35 472 ta** yer uchastkalari **1 168,6 mlrd.so‘m** boshlang‘ich narx bilan auksion savdolariga chiqarilgan va **7 421 ta 826,7 gektar** yer uchastkalari **679,9 mlrd. so‘mga** (**172,4 mlrd.so‘mga** qimmatroq) realizatsiya qilingan.

- **Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun yer uchastkalariga bo‘lgan mulk huquqi realizatsiyasi bo‘yicha 2022-yilda 641,7 gektar** yer-maydoniga ega **19 357 ta** yer uchastkalari **396,4 mlrd.so‘m** boshlang‘ich narx bilan auksion savdolariga chiqarilgan va **3 490 ta 76,0 gektar** yer uchastkalari **82,1 mlrd. so‘mga** (**33,3 mlrd.so‘m** qimmatroq) realizatsiya qilingan.

- **Ko‘p qavatli uy-joy qurish uchun yer uchastkalariga bo‘lgan ijara huquqi realizatsiyasi bo‘yicha 2022-yilda 121,6 gektar** yer-maydoniga ega **1 797 ta** yer uchastkalari **95,2 mlrd.so‘m** boshlang‘ich narx bilan auksion savdolariga chiqarilgan va **1 423 ta 94,7 gektar** yer uchastkalari **227,3 mlrd. so‘mga** (**146,6 mlrd.so‘mga** qimmatroq) realizatsiya qilingan.

2. Dehqon xo‘jaligini yuritish uchun yer uchastkalarini ijaraga berish bo‘yicha 2022-yil boshidan bugungi kungacha 103 859 gektar yer-maydoniga ega **449 377 ta** yer uchastkalari tanlov savdolariga chiqarilgan va **95 530 gektar** yer uchastkalari bo‘yicha **428 858 ta** tanlov g‘oliblari aniqlangan.

Hozirgi kunda **8 330 gektar** bo‘lgan **20 519 ta** yer uchastkalari uchun tanlov savdolarida ishtirok etishda arizalar qabul qilish davom etmoqda.

3. Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer uchastkalarini ijaraga berish bo‘yicha 2022-yilda 182 901 gektar yer-maydoniga ega **3 943 ta** yer uchastkalari tanlov savdolariga chiqarilgan va **166 434 gektar** yer uchastkalari bo‘yicha **3 271 ta** tanlov g‘oliblari aniqlangan. Tanlovlarda **12 913 ta** ishtirokchilar qatnashgan.

Bugungi kunda **16 466 gektar** bo‘lgan **672 ta** yer uchastkalari uchun tanlov savdolarida ishtirok etishda arizalar qabul qilish davom etmoqda.

XII. QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORINI isloh qilish va jadal rivojlantirish

Markaziy depozitariyda **628 ta** aksiyadorlik jamiyatining **166 762,49 mlrd. so'm** umumiy nominal qiymatga ega **16 446,01 mlrd. dona** qimmatli qog'ozlar chiqarilishlari hisobi yuritilmoqda.



2022-yil davomida qimmatli qog'ozlar chiqarilishlari hajmi **13 714,55 mlrd. so'mga** ko'paydi, aksiyalarning soni esa **4 234,9 mlrd. donaga** ortdi.

Markaziy depozitariyda shuningdek, **28 emitent** tomonidan chiqarilgan **874,60 mlrd. so'm** umumiy miqdorga ega **620,0 ming dona** korporativ obligatsiyalar hisobi yuritilmoqda. Ularning **504,63 mlrd. so'm** umumiy miqdorga ega **255,6 ming donasi 21 ta MChJ** tomonidan chiqarilgan.

I. Davlat aktivlarini saqlash va hisobini yuritish

01.01.2023-yildagi holatga ko'ra, **223 ta** aksiyadorlik jamiyatidagi davlat ulushi **134 575,4 mlrd. so'mni** tashkil etdi (shu jumladan, Markaziy depozitariyda 211 ta aksiyadorlik jamiyatining **134 532,7 mlrd. so'm** miqdordagi aksiya ko'rinishida davlat ulushi hisobi yuritilmoqda). 2022-yil davomida ustav fondida davlat ulushi mavjud bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlari soni **11 ta**ga kamaydi, mavjud davlat ulushi hajmi esa **9 253,3 mlrd. so'mga** ortdi.

Xo'jalik boshqaruvi organlarining **162 ta AJ** ustav fondidagi ulushlari hajmi **7 610,8 mlrd. so'mni** tashkil etdi. 2022-yil davomida xo'jalik boshqaruvi organlari aktivlarining hajmi **128,5 mlrd. so'mga**, AJlar soni esa **1 ta**ga kamaydi.

II. Qimmatli qog'ozlar chiqarilishlariga xizmat ko'rsatish

Markaziy depozitariy O'zbekiston Respublikasi depozitar tizimida qimmatli qog'ozlarning yagona hisobi yuritilishini ta'minlaydi. 2022-yil davomida Markaziy depozitariyga qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan qimmatli qog'ozlar chiqarilishlariga xizmat ko'rsatish bo'yicha **232 ta** hujjatlar to'plami kelib tushdi.

Hisobot davrida Markaziy depozitariyda jami **153 ta**, shu jumladan **39 ta** – birlamchi va yangi, **75 ta** - qo'shimcha qimmatli qog'ozlar chiqarilishlari, **15 ta** kapitallashtiruv bo'yicha va **2 ta** yiriklashtirish bo'yicha qo'shimcha aksiya chiqarilishlari, shuningdek **22 ta** korporativ obligatsiya chiqarilishlari hisobga olindi.

Tugatilganligi munosabati bilan **21 ta** emitentning qimmatli qog'ozlar chiqarilishlari, **27 ta** emitent qimmatli qog'ozlar chiqarilishlarining qismi, **11 ta** emitentning bir yoki bir necha chiqarilishlari va 3 ta emitentning obligatsiya chiqarilishi qismi hamda **2 ta** emitentning obligatsiya chiqarilishi Markaziy depozitariy hisobidan chiqarildi.

2022-yil davomida Markaziy depozitariy tomonidan aksiyadorlarning umumiy yig'ilishlarini o'tkazish, shuningdek boshqa korporativ harakatlarni amalga oshirish uchun **2 430 ta** reyestr shakllantirildi.

651 ta mahalliy emitentning **865 ta** turdagi qimmatli qog'ozlariga xalqaro kodlar berildi.

III. Investitsiya fondlariga xizmat ko'rsatish

Markaziy depozitariy investitsiya fondlari tomonidan chiqarilgan va ularga tegishli bo'lgan qimmatli qog'ozlarga bo'lgan huquqlar hisobini yuritish bo'yicha mutlaq funksiyalarini bajargan holda, **2 ta** XIF va **7 ta** investitsiya fondlariga xizmat ko'rsatadi.

Hisobot sanasiga investitsiya fondlari tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlar hajmi **2,32 mlrd.so'mni**, investitsiya fondlari tomonidan sotib olingan qimmatli qog'ozlar hajmi esa **7,46 mlrd.so'mni** tashkil etdi. Investitsiya fondlari aksiyadorlari soni **49 713 tani**, shu jumladan **49 676 ta** jismoniy va **37 tasi** yuridik shaxslarni tashkil qildi.

IV. Investitsiya vositachilari bilan hamkorlik yuritish

Markaziy depozitariy, shuningdek **51 ta** investitsiya vositachilari va ularning mijozlarining qimmatli qog'ozlarga bo'lgan huquqlari hisobini yuritadi.



01.01.2023-yil holatiga ko'ra, investitsiya vositachilarining depo hisobvaraqlarini ochgan mijozlari soni **704,6** mingni, shu jumladan **58,90 ming** yuridik va **645,68 ming** jismoniy shaxslarni tashkil etdi.

O'tgan yilning ayni shu davriga qiyoslaganda, depo hisobvaraqlari soni **1,59** foizga kamaygan.

Investitsiya vositachilari tomonidan hisobi yuritiladigan qimmatli qog'ozlarning umumiy hajmi nominal qiymati bo'yicha **12 501,0 mlrd. so'm** miqdordagi **7 046,56 mlrd. dona** qimmatli qog'ozni tashkil etdi.



O'tgan yilning ayni shu davriga nisbatan investitsiya vositachilari tomonidan hisobi yuritiladigan qimmatli qog'ozlar hajmi **32,73 foiz**ga ortdi.

Markaziy depozitariy tomonidan hisobot davrida **10 592,13 mlrd.so'm** miqdordagi **100,32 mlrd. dona** qimmatli qog'ozlar bo'yicha **255 ta** birjadan tashqari bitimlar ro'yxatga olindi.

Ro'yxatga olingan birjadan tashqari bitimlar bo'yicha depo hisobvaraqlariga **332 ta** o'tkazmalar amalga oshirildi.

V. Deponentlarning yagona bazasi



Markaziy depozitariy tomonidan yuritiladigan deponentlarning yagona bazasi 01.01.2023-yil holatiga **772 900 tani**, shu jumladan **709 853 ta** jismoniy shaxsni va **63 047 ta** yuridik shaxsni tashkil etdi. Deponentlarning yagona bazasida ro'yxatga olingan shaxslar soni o'tgan yilning ayni shu davriga nisbatan **133 858 ta**ga kamaydi.

VI. Xalqaro hamkorlik

2022-yilning yanvar oyida MHD AJ (Rossiya) vakillari bilan korrespondentlik munosabatlarini o'rnatish, xususan, O'zbekiston Respublikasi Markaziy depozitariysida MHD AJning depo hisobvarag'ini ochish bo'yicha videokonferensaloqa formatida bir qator ishchi uchrashuvlar o'tkazildi. O'zaro hamkorlikni amalga oshirishning huquqiy asoslarini tayyorlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish, xususan, tegishli qonun hujjatlariga va Markaziy depozitariyning ichki me'yoriy hujjatlariga o'zgartishlar kiritish, shuningdek, YaDTKga kiritiladigan texnik o'zgartirishlarni ishlab chiqish masalalari ko'rib chiqildi.

Turkiya Markaziy depozitariysi va Rayffayzenbank kastodian-banki vakillari bilan tashkil etilgan uchrashuv natijalariga ko'ra, Markaziy depozitariy bilan Turkiya Markaziy depozitariysi va Rayffayzenbank o'rtasida yaqin kelajakda korrespondentlik aloqalarini o'rnatish va to'g'ridan-to'g'ri hamkorlikda ishlashga o'tishga kelishildi.

Shuningdek, Moliya vazirligi tomonidan tashkil etilgan mazkur roud-shou doirasida Markaziy depozitariy Evroklir va Klirstrim xalqaro markaziy depozitariylari bilan o'tgan uchrashuvda ishtirok etdi. Evroklir va Klirstrim Yevropaning moliyaviy xizmatlar ko'rsatadigan yirik kompaniyalari hisoblanadi.

Ikki yirik xalqaro depozitariy – Klirstrim va Yevroklir bilan aloqalarni yo'lga qo'yish Markaziy depozitariy uchun strategik ahamiyatga ega hisoblanadi, chunki ushbu tashkilotlar butun dunyo bo'ylab, qimmatli qog'ozlar bilan bitimlarni tez va avtomatlashtirilgan tarzda amalga oshirishadi hamda yirik investorlarni, shu jumladan institutsional investorlarni bog'lovchi va ularga xizmat ko'rsatuvchi o'ziga xos "ko'priq" vazifasini bajarishadi. Ushbu hamkorlik Osiyo, Yevropa va Amerikadagi yetakchi kapital bozorlarining eng yirik depozitariylariga, moliyaviy institutlar va banklarga kelgusida O'zbekiston qimmatli qog'ozlar bozoriga kirish, O'zbekistonning mahalliy emitentlari va investorlariga esa chet el bozorlariga chiqish imkonini beradi.

Yevroklir/Klirstrim vakillari bilan uchrashuv yakunlariga ko'ra kelgusida amaliy hamkorlik yuritish va Markaziy depozitariy va Yevroklir/Klirstrim o'rtasida

o'zaro hisob-kitoblarni amalga oshirish bo'yicha aloqalarni o'rnatish bo'yicha so'z yuritildi.

Xalqaro markaziy depozitariylar bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqa o'rnatish tartib-taomili murakkab jarayon hisoblanadi. Ayni shu jihatlarni hisobga olganda, Rayffayzenbank dastlabki vaqtda nominal saqllovchi sifatida Markaziy depozitariyda korrespondentlik hisobvarag'i ochish orqali Klirstrim va investorlar o'rtasida agent rolini bajarishga tayyorligini bildirdi. Shu munosabat bilan Markaziy depozitariy Rayffayzenbank bilan o'zaro ikki yoki uchtomonlama korrespondentlik aloqasini o'rnatishga kelishib olindi.

2022-yilning may oyida Yevropa markaziy depozitariylarining assotsiatsiyasi tomonidan tashkil etilgan Markaziy depozitariylar Butunjahon forumining (WFC) onlayn konferensiyasi bo'lib o'tdi. Anjuman davomida ishtirokchilar o'zaro axborot almashdilar, Markaziy depozitariylarning barqaror rivojlanishdagi ishtiroki, moliya bozori infratuzilmalarini texnologik kuzatish, hisob-kitoblar siklini maqbullashtirish va boshqa masalalarni muhokama qildilar.

2022-yil iyun oyida moliyaviy xizmatlar industriyasi uchun tayyor yechimlarni yirik yetkazib beruvchisi hisoblangan CMA Small Systems IT-kompaniyasi (Shvetsiya) vakillari bilan uchrashuv o'tkazildi. Uchrashuv davomida ishtirokchilar o'zaro ma'lumot almashib, hamkorlikka qiziqish bildirdilar.

Shuningdek, Markaziy depozitariy xodimlari Moliya vazirligi va London fond birjasi hamkorligida tashkil etilgan mazkur birjada aksiyalarni ommaviy joylashtirish jarayonlari va afzalliklariga bag'ishlangan amaliy seminarda ishtirok etdi.

Joriy yilning sentabr oyida "Bilimlar almashish tashabbusi" dasturi doirasida Koreya Respublikasi Xalqaro moliyaviy hamkorlik kengashi (CIFIC) taklifiga binoan Markaziy depozitariy xodimlari Seul shahrida tashkil etilgan CIFIC o'quv seminarida ishtirok etdilar, seminar davomida Koreya Respublikasining kapital bozori, shuningdek, Koreya Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi faoliyati bilan yaqindan tanishildi.

Markaziy depozitariy xodimlari 2022-yilning sentabrida Markaziy depozitariyda jarayonlarni avtomatlashtirish taomilini o'rganish maqsadida YeMDA ishtirokchilari uchun tashkil etilgan vebinarda faol ishtirok etdilar.

2022-yilning oktabr oyida Moliya vaziri o'rinbosari O.Isakov boshchiligida "Kapital bozori to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni loyihasi muhokamasiga bag'ishlangan davra suhbat bo'lib o'tdi, unda vazirlik va idoralar, donor tashkilotlar, xalqaro moliya institutlari, Markaziy depozitariy, "Toshkent" RFB, O'zRVB va professional bozor ishtirokchilari vakillari qatnashdilar.

2022-yilning noyabr oyida Markaziy depozitariyda Osiyo taraqqiyot banki (OTB) delegatsiyasi a'zolari bilan uchrashuv bo'lib o'tdi. Uchrashuvda delegatsiya a'zolariga O'zbekiston depozitarlik tizimi va Markaziy depozitariy faoliyatini rivojlantirish doirasida amalga oshirilayotgan loyihalar to'g'risida ma'lumotlar taqdim etildi. Uchrashuv yakunlariga ko'ra tomonlar O'zbekiston qimmatli qog'ozlar bozorini yanada rivojlantirishga hissa qo'shishga qaratilgan o'zaro manfaatli hamkorlikka tayyor ekanliklarini bildirdilar.

Shuningdek, 2022-yil noyabr oyida Moliya vazirligida Markaziy depozitariy bilan YeTTB delegatsiyasi o'rtasida xalqaro moliya bozorlari bilan integratsiyalashuv orqali barcha toifadagi investorlar uchun O'zbekiston kapital bozorining ochiqligi darajasini oshirish masalalari muhokamasi bo'yicha uchrashuv o'tkazildi.